

O'ZBEKISTON TABIIY BOYLIKLARINI MUHOFAZA QILISHDA EKOLOGIK TARBIYA MASALALARI

Mo'minov Doniyor G'ulomovich

*Qo'qon davlat universiteti Geografiya va
Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, g,f,n*

Qo'ziyeva Ozodxon Mahmudovna

*Qo'qon davlat universiteti Geografiya va
iqtisodiyot kafedrası professori, g,f,d*

Annotatsiya

Mazkur maqolada tabiiy resurslar va ularda samarali foydalanish to'g'risida ma'lumot berilgan. O'zbekiston tabiiy resurs imkoniyati va ularni muhofaza qilish, aholining ekologik madaniyatini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Таянч сўзлар: ekologiya, geoeologiya, tabiiy resurs, qishloq xo'jaligi, ekologik tarbiya, yer resurslari, landshaft, tabiiy fanlar.

Аннотация

В данной статье даны сведения о природных ресурсах и их эффективном использовании. Рассмотрены вопросы охраны природных ресурсов и формирования экологической культуры населения.

Ключевые слова: экология, геоэкология, природные ресурсы, сельское хозяйство, экологическое воспитание, земельные ресурсы, ландшафт, естественные науки.

Annotatsion

This article provides information on natural resources and their efficient use. The issues of access to and protection of natural resources of Uzbekistan, the formation of ecological culture of the population are covered.

Key words: ecology, geoeology, natural resurs, agroculture, areas, natural landscape, education, natural sciences.

O'zbekiston zaminining geologik jihatdan qadimdan juda murakkab paleogeografik rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirganligi natijasi o'laroq xilma-xil tabiiy boyliklar tarkib topgan. Hozirgi kunga kelib, O'zbekistonda 2700 dan ortiq qazilma boyliklar konlari va ochilishi lozim bo'lgan yangi konlar aniqlangan. O'zbekistonda yiliga 200 mln. tonnadan ko'p tog' jinslari qazib olinadi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra ruda ochiq konlarida o'rtacha zichlikdagi guruntlar portlatilganda havoga 100-200 tonnagacha chang ko'tarilishi qayd etilgan. Ma'danlar miqdorining kamayishi va sifatining buzilishi kuzatiladi. Qazilma boyliklarni ochiq usulda qazib olish jarayonida ularning isrof bo'lishi kamroq,

ko'pincha 3-8 %, murakkab konlarda 10-12 % ni tashkil qiladi. Shu jihatdan qaraganda ma'danlarning iloji boricha ochiq usulda qazib olish foydalidir. Tabiiy boyliklarni yopiq shaxta usulida qazib olish katta miqdorda isrofgarchilikka olib kelishi aniqlangan. O'rtacha ko'rsatkichlarga qaraganda shaxta usulida qazib olingan ko'mirning 20-40 % i, rangli metallarning 15-25 % i, tog'-kimyo xom ashyosining 20-60 % i isrof bo'lishi mumkin.

O'zbekistonning yer resurslari 45 mln. ga atrofida. Uning atigi 1/10 qismidagina sug'orishda foydalaniladi xolos. O'zbekiston dehqonchilikda foydalaniladigan yerlar maydoni 5-6 mln. ga bo'lib, ular sug'oriladigan va lalmi yerlardir. Bu yerlarning 1,6 mln. gektari cho'l zonasida joylashgan. Sug'oriladigan yerlar Farg'ona, Zarafshon vodiylarida va quyi Amudaryo rayonida ancha maydonlarni egallaydi (O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlari).

Hozir 4,2 mln. ga yerlarda sug'orib dehqonchilik qilinadi. Sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududlar anchagina, ammo suv yetishmasligi sababli ulardan foydalanishda bazi muammolar yuzaga kelmoqda.

Yer resurslaridan foydalanishda quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

1. Yer hajmi jihatidan cheklangan, ya'ni noelastik xususiyatga ega.
2. Yerni xech qanday ishlab chiqarish vositasi bilan almashtirib bo'lmaydi.
3. Yer tabiat mahsuli, u inson mehnati mahsuli emas.
4. Yer resurslari sifat jihatdan muhofazaga muhtoj.

O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan, 2002 yildan boshlab shu kunga qadar mamlakatimiz hududidan oqib o'tuvchi 8 ta daryolarning (Qashqadaryo, Zarafshon, Chirchiq, Surxondaryo, Norin, Qoradaryo, Amudaryo va Sirdaryo) suvini muhofaza qilish mintaqalari va qirg'oqbo'yi polosalarini belgilash ishlari amalga oshirildi va ular bo'yicha Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari qabul qilindi. Ushbu daryolarning suvini muhofaza qilish maydonlari jami 155416,5 gektarni, shu jumladan qirg'oqbo'yi polosalari 27900,5 gektarni tashkil qilmoqda. Qo'mita tizimining sa'yi-harakatlari bilan, Qashqadaryo, Zarafshon, Chirchiq, Surxondaryo, Norin va Qoradaryo daryolarining suvini muhofaza mintaqasida joylashgan jami 152 ta ekologik potensial xavfli ob'ektlardan 143 tasi chiqarildi.

Ekologik madaniyatni rivojlantirishda boshqaruvning o'rni faqatgina Davlat xizmati bilangina emas, balki jamoatchilik rolini oshirish bugungi demokratik, huquqiy davlat qurish yo'lidagi ekologik bilimlarni targ'ibot qilish, aholining ekologik saviyasini ko'tarish borasida bir muncha ishlar amalga oshirilmoqda (X.Murodulla qizi, 2009). Lekin shunga qaramay bu sohada bir qator kamchiliklar ham mavjud.

Insoniyat qadimgi zamonlardanoq tabiatning bir qismi ekanligini anglab, u o'zining harakatlari bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarni ongli ravishda

boshqariladiganligini his qilib kelgan. Lekin insoniyat tabiatdan foydalanib uni qayta tiklanishiga e'tibor qaratilishini kech bo'lsa-da, tushunib yetdi. Insonlar madaniyati shakllanib rivojlana borar ekan, tabiat in'omlari bo'lmish o'simlik va hayvonot dunyosi turlarini bir qanchasini madaniylashtirib, o'zlari uchun foydalanishni amalga oshirish jarayoni hozirda ham davom etayotgan jarayondir.

Atrof-muhit sofliigi, uning rang-barangligi-yu xilma-xilligini saqlash, ekologik madaniyatni rivojlantirish va uni boshqarish asosan tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va uning joylardagi tashkilotlari faoliyatiga bog'liq bo'libgina qolmay, joylardagi davlat hokimiyati organlarining ham burchidir. Ularning atrof-muhit muhofazasiga oid Qonun va hukumatimiz qarorlarini bajarishda ma'lum bir sustkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sabab esa, qishloq xo'jaligida foydalanish uchun qaysidir yillarda ekilgan daraxtlarni parvarishlash, ularning qurigan turlari o'rniga qayta ko'chat ekish yo'li bilan tiklash ishlari qoniqarli darajada emas. Chunki mahsulot hosildorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ixotazorlarning zarurligini tasavvur etolmagan holda ayrim fermerlar tomonidan ixota daraxtzorlarini kesish hollari davom etmoqda.

Atrof-muhitni muhofaza qilishda va tabiat resurslaridan oqilona foydalanishda hozirgi kunda qo'llanilayotgan iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, tabiatdan noto'g'ri foydalanganlarga tabiat solig'ini qo'llash hamda jamiyatning ekologik madaniyatini shakllantirishni rivojlantirishda ekologik ta'lim-tarbiyaning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish kerak. Bu borada ta'lim tizimi muassasalarining roli ahamiyatli. Jumladan, tabiiy fanlar o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Bunda tabiiy fanlar doirasida o'qitilayotgan mavzularning hayotiyeligiga, amaliy harakterdagi mashg'ulotlarga ahamiyat qaratish bugungi ekologik holat yomonlashib borayotgan bir paytda muhimdir. O'quvchilar tabiat va jamiyat o'zgarishlarini kuzatish va o'rganish jarayonida tabiatdagi kichik bir o'zgarish ham jamiyat hayotiga katta ta'sir qilishini xis qila olishlari kerak. Bu bilan respublikamizda ishlab chiqarishni va insonning tabiatga bo'lgan munosabatini tartibga solish imkoniyati tug'iladi.

Tabiatimizni asrash, uni muhofaza qilish, tabiatdan oqilona foydalanish va jamiyatda ekologik madaniyat va ekologik ongni rivojlantirish nafaqat tabiatni muhofaza qilish organlarining ishi, balki shu zaminda yashayotgan har bir insonning ona Vatanimizga, uning tabiatini asrashga bo'lgan farzandlik burchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. **O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi seminari materiallari.**
2. Muminov Daniyori Gulomovich. SOME CONSIDERATIONS ON THE ECOLOGICAL STATUS OF LAND RESOURCES. **INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ)**. ISSN: 2347-6915 SJIF Impact Factor: 7.718. 2022.

3. 19. Mominov Daniyori Gulomovich. GEOECOLOGICAL BASIS OF SOUTH FERGANA NATURE PROTECTION AND RATIONAL USE OF NATURAL RESOURCES. International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE). DOI:10.9756/INTJECSE/V14I8.18 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 08 2022.
4. Mominov Daniyori Gulomovich. USE OF TOPONOMIC DATA IN GEOGRAPHY LESSONS. European. Chemical. Bulletin. 2023,12(Special Issue 1, Part-B) ISSN 2063-5346. DOI:10.31838/ecb/2023.12.s1-B.186. 10.04.2023.
5. Mominov D.G'. STUDYING OUR CULTURAL HERITAGE IN GEOGRAPHY LESSONS. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) - Peer Reviewed Journal. Volume: 9| Issue: 5| May 2023|| Journal DOI: 10.36713/epra 2013 || SJIF Impact Factor 2023: 8.224 || ISI Value: 1.188
6. Muminov Daniyori Gulomovich FORMATION OF CARTOGRAPHIC COMPETENCE IN GEOGRAPHY LESSONS. EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues. ISSN:2321-6247 DOI: 10.36713/epra/ 0713.
7. Mominov Daniyori Gulomovich. USE OF TOPONOMIC DATA IN GEOGRAPHY LESSONS. European. Chemical. Bulletin. 2023,12(Special Issue 1, Part-B) ISSN 2063-5346. DOI:10.31838/ecb/2023.12.s1-B.186. 10.04.2023.
8. Муминов Дониёр Гуломович. Ландшафтно-экологические аспекты использования земельных ресурсов. Abay nomidagi Qozoq Milliy pedagogika universitetida “Парадигмы естественно-научного образования и науки в целях устойчивого развития” mavzusida o'tkazilgan yoshlar forumi. Noyabr, 2022. 146-150.
9. Tursunov X. Geografiya va ekologik ta'lim masalalari. O'zbekiston geografiya jamiyati 7-s'yezd materiallari. Toshkent. 2006 yil.
10. Xurshida Murodulla qizi. Inson, tabiat va jamiyat. Toshkent. 2009 yil.
11. Перегудов Л.В., Саидов М.Х. Менеджмент и экономика высшего образования. Т.: Изд-во «Финансы», 2002. - 184 с.
12. Саидов М.Х. Финансовый менеджмент в системе высшего образования: Учебное пособие/ М. Х. Саидов. – Т.: «Мысль – Бостон», 2011. - 321 с.